


## Akademik Shavkat Ayupov bilan onlayn suhbat o'tkazildi

Joriy yil 4-iyun kuni "Akademik bilan suhbat" onlayn loyihasi doirasida O`zR FA Matematika instituti direktori, Oliy majlis Senati a'zosi, akademik Shavkat Ayupov bilan Prezident maktablari, Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati, Abu Ali Ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab internati hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabdan 80 nafarga yaqin o'quvchilar o'rtasida onlayn suhbat o'tkazildi.



Onlayn suhbatda akademik Shavkat Ayupov bugungi kunda matematika fanini rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganligi, o'quvchi yoshlarni ushbu fanga qiziqtirish va bu borada olib borilayotgan islohotlar haqida gapirdilar. O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar hamda ta'lim dargohida olayotgan bilimlari bilan o'rtoqlashdilar.